

“TASDIQLAYMAN”

**“O‘zbekiston texnologik metallar
kombinati” AJ Boshqaruv raisi**

F.R. Abdullayev
“**TMK**” 2025y.

E‘lon qilingan sana: 2025-yil 1-dekabr
Kuchga kirish sanasi: 2025-yil 1-dekabr

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJning TA‘MINOT ZANJIRI SIYOSATI

1. Kirish

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ (keyingi o‘rinlarda - “O‘zTMK” AJ) kritik va strategik minerallar sanoatini jahon miqyosida namoyon etayotgan yetakchi kompaniya hisoblanadi.

“O‘zTMK” AJ volfram, molibden, reniy, grafit, selen, tellur, litiy, nikel, kobalt kabi texnologik metallar yo‘nalishida faoliyat yuritib, global ta‘minot zanjirlarining muhim ishtirokchisi sifatida barqaror va mas‘uliyatli **“Kelajak metallari”** ekotizimini shakllantirishni strategik maqsad qilib olgan.

Ushbu Ta‘minot zanjiri siyosati “O‘zTMK” AJning global bozorda ishonchli, barqaror va shaffof hamkor sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

2. Siyosatning maqsadlari

“O‘zTMK” AJ ta‘minot zanjirini boshqarishda quyidagi strategik maqsadlarga erishishni ko‘zlaydi:

2.1. Mazmunan:

- mas‘uliyatli, shaffof va barqaror ta‘minot zanjirini ta‘minlash;
- xom ashyo va materiallarning kelib chiqish manbalarida xavfsizlik va qonuniylikni kafolatlash;
- inson huquqlari, ekologik talablar va mehnat standartlariga to‘liq rioya etish;
- kritik minerallar bozorida yetkazib beruvchilar bilan barqaror sheriklikni rivojlantirish.

2.2. Strategik:

- “O‘zTMK” AJning xalqaro RMI, IRMA, ISO 26000 va ESG standartlariga to‘liq mosligini ta‘minlash;
- global texnologik kompaniyalar bilan uzoq muddatli hamkorlik uchun ishonch mexanizmini mustahkamlash;
- mineral xom ashyo ta‘minotida geosiyosiy xavflarni kamaytirish;
- market va logistika barqarorligini ta‘minlaydigan ta‘minot tizimini yaratish.

3. “O‘zTMK” AJta‘minot zanjiri siyosati asoslanadigan xalqaro normalar

Siyosat quyidagi xalqaro talablarga to‘liq moslashtirilgan:

- **OECD Due Diligence Guidance for Responsible Mineral Supply Chains** - Minerallar ta‘minot zanjirlari bo‘yicha mas‘uliyatli tekshiruv (due diligence) uchun OECD qo‘llanmasi talablari
- **Responsible Minerals Initiative (RMI)** - Mas‘uliyatli minerallar bo‘yicha RMI tashkiloti talablari

- **IRMA** - Mas'uliyatli konchilik bo'yicha xalqaro standart
- **ISO 26000** - Ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha xalqaro standart
- **ISO 37001** - Antikorrupsiya tizimini boshqarish bo'yicha xalqaro standart
- **UN Global Compact** - BMT Global shartnomasi talablari.

Ushbu standartlar "O'zTMK" AJning xalqaro bozorda ishonchli ta'minotchi sifatida tan olinishiga xizmat qiladi.

4. Siyosatning qo'llanilishi

Ushbu siyosat "O'zTMK" AJ bilan hamkorlik qiluvchi barcha subyektlarga tatbiq etiladi:

- xom ashyo va texnologik metallar yetkazib beruvchilar;
- sub-pudratchilar;
- logistika va transport kompaniyalari;
- qayta ishlash va utilizatsiya muassasalari;
- EPC, konsalting va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar;
- eksport-import hamkorlari.

5. Asosiy tamoyillar

5.1. Inson huquqlariga hurmat

Yetkazib beruvchi:

- bolalar mehnati, majburiy mehnat, kamsitishni yo'l qo'ymaydi;
- xavfsiz mehnat sharoiti va adolatli ish haqini ta'minlaydi.

5.2. Ekologik barqarorlik

- chiqindilarni to'g'ri boshqarish;
- atmosfera, suv va tuproqni ifloslantirmaslik;
- ekologiya sohasida normativ hujjatlar talablariga rioya qilish.

5.3. Korrupsiyaga qarshi qat'iy siyosati

- poraxo'rlik, manfaatlar to'qnashuviga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi;
- ISO 37001 talablariga muvofiq harakat qilinadi.

5.4. Xavfsiz va qonuniy ta'minot manbalari

- xom ashyoning kelib chiqish manbasi qonuniy, litsenziyalangan va ekologik talablarga mos bo'lishi shart.

5.5. Shaffoflik va hisobdorlik

- yetkazib beruvchilar haqida to'liq axborot;
- due diligence (tekshiruv) jarayonlarida ochiq hamkorlik.

6. Yetkazib beruvchilarni tanlash va baholash

“O‘zTMK” AJ barcha yetkazib beruvchilarni quyidagi mezonlar bo'yicha baholaydi:

- moliyaviy barqarorlik;
- texnologik imkoniyatlar va sifat standarti;
- ekologik talablarga muvofiqlik;
- mehnat muhofazasi;
- RMI/IRMA/ISO talablariga moslik;
- korrupsiya xavfining yo'qligi;
- xavf darajasi (Risk Rating).

Tanlash jarayoni 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. **Dastlabki tahlil**
2. **Due diligence (tekshiruv)**
3. **Audit va monitoring**

7. Due Diligence (tekshiruv) va audit tartibi

“O‘zTMK” AJ ta'minot zanjirini muntazam nazorat qilish uchun quyidagi jarayonni joriy qiladi:

1. Hujjatlarni tahlil qilish
2. Inson huquqlari va ekologik xavflar tahlili
3. Korxonada audit o'tkazish (agar zarur bo'lsa)
4. CAP ishlab chiqish - Xavflarni kamaytirish rejasi
5. Monitoring
6. Yillik qayta baholash.

Shu bilan birga, mas'uliyatli ta'minot zanjirini ta'minlash maqsadida quyidagi siyosat va tartiblar ishlab chiqilgan:

- Mas'uliyatli minerallar siyosati;
- CAHRA (Mojarolar ta'sirida bo'lgan va yuqori xavfli hududlar)ni aniqlash tartibi;
- OECD va tegishli standartlar talablariga muvofiq tarzda xatlarni kamaytirish bo'yicha tartib;
- Xom-ashyoning e'lon qilingan manbalardan kelib chiqishining ishonchliligini baholash tartibi;
- Xom-ashyo kelib chiqish manbai va tashish hujjatlarida nomuvofiqliklarni aniqlash tartibi;
- Due diligence (yetkazib beruvchilarni tekshirish) o'tkazish tartibi va boshqalar.

Ushbu tizim “O‘zTMK” AJning global talablarga mos, xavfsiz va mas’uliyatli ta’minot zanjirini ta’minlaydi.

8. Yetkazib beruvchilarning majburiyatlari

Har bir yetkazib beruvchi:

- ekologik va mehnat qonunchiligiga amal qiladi;
- tegishli litsenziya va ruxsatnomalarga ega bo‘ladi;
- bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaydi;
- korrupsion harakatlarni rad etadi;
- auditga ruxsat beradi;
- xom ashyo kelib chiqish manbasi haqida isbotlovchi hujjat taqdim etadi.

9. Xavflarni boshqarish

“O‘zTMK” AJ ta’minot zanjirida quyidagi xavf turlarini aniqlaydi va boshqaradi:

- geosiyosiy xavflar;
- ekologik xavflar;
- sifat xavflari;
- korrupsion xavflar;
- logistik xavflar;
- xom-ashyo taqchilligi xavflari;
- inson huquqlari buzilishi xavfi.

Har bir xavf bo‘yicha CAP (Xavflarni kamaytirish rejasi) ishlab chiqiladi.

10. Monitoring va javobgarlik

“O‘zTMK” AJ ta’minot zanjiri siyosati uchun mas’ul shaxs begilangan:

Turdibayev Abdurauf Abdukarimovich - Boshqaruv raisining tijorat masalalari bo‘yicha o‘rinbosari.

E-pochta: a.turdibaev@uztmk.uz

Siyosatni amalga oshirish uchun mas’ul alohida mutaxassislar tayinlangan:

- Xom-ashyo, materiallar, tovar va xizmatlar xarid jarayonini amalga oshirish mas’ul - Xaridlar va import boshqarmasi boshlig‘i O. Naimov;
- Xom-ashyo, materiallar, tovar va xizmatlar pudratchisi (yetkazib beruvchi)ni baholash va tanlash jarayoni uchun mas’ul - tasdiqlangan xarid komissiyasi;
- Yetkazib beruvchilarning muvofiqligini tekshirish va ta’minot zanjirida xavflarni baholash (CAHRA) uchun mas’ul - Komplayens xizmati xodimi U. Shaxizirova;
- **Due Diligence** (tekshiruv) jarayonlarini bevosita amalga oshirish uchun mas’ul xodimlar:
 - Xaridlar va import boshqarmasi boshlig‘i - O. Naimov
 - Yuridik ta’minot boshqarmasi boshlig‘i - G. Aliyev

- Moliya boshqarmasi boshlig'i - J. Turakulov
- Xavfsizlik boshqarmasi boshlig'i - J. Ikramov
- Ombor xo'jaligi bo'lim boshlig'i - D. Xolmuratov.

Yuqorida qayd etilgan **Due Diligence** (tekshiruv) jarayonlarini bevosita amalga oshirish uchun mas'ul xodimlar uchun tegishli o'quv-treninglarni tashkil etish uchun mas'ul - HR departamenti direktori - S. Sadullayeva hisoblanadi.

11. Siyosatni joriy etish va qayta ko'rib chiqish

- Siyosat barcha yetkazib beruvchilarga rasman yuboriladi.
- Barcha shartnomalarga ushbu siyosat talablari kiritiladi.
- Siyosat har yili qayta ko'rib chiqiladi.
- Xalqaro standartlar va bozor talablariga muvofiq o'zgarishlar kiritiladi.

12. Yakuniy qoidalar

Ushbu Ta'minot zanjiri siyosati "O'zTMK" AJning:

- kritik minerallar sohasidagi global nufuzini
- barqaror va shaffof ishlash majburiyatini
- xalqaro standartlarga to'liq mos kelishini
- eksport bozorlariga kirish imkoniyatlarini ta'minlovchi asosiy korporativ hujjat hisoblanadi.

Ushbu siyosat Kombinat Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Zarur hollarda, bozor yoki qonunchilikdagi o'zgarishlarga muvofiq ravishda siyosatga tuzatishlar kiritiladi.

Mazkur siyosat xalqaro standartlarga (ISO 26000, ISO 37001, RMI, IRMA, ESG Principles, UN Global Compact) muvofiq ishlab chiqilgan.

ESG departament direktori



S. Murodov